

**TIBBIY MALAKALI MUTAXASISLARNI TAYORLASHDA UMUMIY
TIBBIY PEDAGOGIKADAN FOYDALANISH MEHANIZMI.
(KOMMUNAL VA MEHNAT GIGIYENASI FANINI O`QITISH MISOLIDA)**

Kodirova M.M

Anvarova S

*“Kommunal va mexnat gigiyenasi” kafedrasi assistenti
Tibbiy Profilaktika ishi yo`nalishi 4 kurs talabasi
Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti. O’zbekiston.*

ANOTATSIYA

Kommunal va mexnat gigiyenasi fanini o‘qitishda amaliy o‘yin uslublaridan foydalanilgan. Mavzuni o‘qitish jarayonida interfaol uslublar SWOT va Sinkveyn interfaol o‘yinlarini qo‘llash va tadbiq etish, kasbiy bilimlarni berish orqali talabalarning bilim va ko‘nikmalarni oshirish samarasi va sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, ularning mustaqil fikrlashi, dallillarga asoslangan tibbiyot asosida ma'lumotlarni tahlil qilishi, o‘zini tanqidiy baholash qobiliyatlarini rivojlantirish usullari taklif etildi.

АННОТАЦИЯ

В преподавании дисциплины коммунально-гигиеническая работа использовались практические игровые приемы. В процессе преподавания темы предложены интерактивные методики применения и применения интерактивных игр SWOT и Sinqueen, способы развития у учащихся навыков самостоятельного мышления, анализа данных на основе доказательной медицины, умений самокритично оценивать, что положительно оказывается на плоде и качестве повышения знаний и умений посредством передачи профессиональных знаний.

ABSTRACT

Practical play techniques were used in the teaching of communal and labor hygiene. In the process of teaching the subject, interactive methods SWOT and Sinkwein interactive games have been proposed, methods for the application and implementation of which, by giving professional knowledge, positively affect the effect and quality of improving knowledge and skills of students, their independent thinking, analysis of data based on medicine based on dallils, development of self-critical assessment skills.

Mavzuning dolzarbliji. Zamonaviy bilim va ko‘nikmaga ega, raqobatbardosh kadr tayyorlash , ularda kasbiy mahoratni rivojlantirish bilan birgalikda tibbiy, psixologik va pedagogik malakani shakllantirish

Kalit so`zlar: Organayzerlar, tibbiy pedagogika, swot, pedagogika, kasbiy mahorat, tibbiy ta`lim talabalari, mustaqil fikrlash, kompetentlik.

Asosiy qism: Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bo‘lajak shifokorlarning amaliy ko‘nikmalarni bajarishlari bilan bog‘liq bo‘lgan yangi talablar qo‘yilmoqda.

Bugun dunyoda murakkab amaliyotlarni algoritmik ravishda xavfsiz sharoitlarda o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib boriladi. Bo‘lajak shifokorlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda amaliy ko‘nikmalarni pedagogik ta’lim texnologiyalarini qo‘llab samarali bajarishlarini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Tibbiy ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha alohida takliflar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda hozirgi vaqtida ta’lim tizimini hamda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirish va pedagogik texnologiyalarini qo‘llash borasida keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, amaliy mashg`ulot jarayoni doirasida o‘qitishning faol va interfaol shakllari kreativligini ta’minalash, kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarni amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim berish imkoniyatlarini kengaytirish, mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarning amaliyotdagi ko‘nikmalarini mustahkamlash va ilmiy izlanuvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarini takomillashtirish hamda innovatsion faoliyatning turli darajalarini talab darajasida egallashlari uchun simulyatsion ta’lim muhitini, pedagogik sharoitlar va didaktik imkoniyatlarni ta’minalash o‘ziga xos ahamiyatni kasb etadi. Ta’lim texnologiyalaridan oqilona foydalinish uchun o‘qituvchilarda quydagi didaktik imkoniyatlaring arsenali bilan tanishtirish tavsiya etiladi:

- axborotni taqdim etish shakllarining xilma-xilligi;
- har xil turdagи amaliy ko`nikmalar;
- o‘quvchining muayyan ijtimoiy va ishlab chiqarish vaziyatlariga “sho‘ng‘ishini” ta’minlovchi o‘quv muhitini yaratish;
- o‘yin texnologiyalarini qo‘llash;
- o‘quvchilarning o‘quv-tarbiyaviy ishlarini faollashtirish, ularning o‘quv faoliyati subekti sifatidagi rolini kuchaytirish; ularning motivatsiyasini kuchaytirish

Tibbiyot ta’limining vazifalaridan biri zamonaviy tibbiy axborot tizimlaridan foydalana oladigan, ularni ishlab chiqish va ta’minalashda ishtirok eta oladigan mutaxassislarni tayyorlashni ta’minalashdan iborat

Xozirgi kunda tibbiy ta`lim talabalarini o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalinish tobora kengaymoqda

Talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'lim, o'yinlar, tayanch signallar, konseptlar texnologiyalari va boshqalar.

O'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqish asosidagi pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalar o'rganilayotgan bilimlarning didaktik tizimi optimal mazmunga ega 2 bo'lishi, bilimlarga tizimli nuqtai nazardan yondoshish, talabalarga bilimlarni egallahshning eng maqsadga muvofiq yo'llarini o'rgatish kabi tamoyillarga asoslanadi.

O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilish asosidagi pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga takomillashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari, ta'limning jamoa usuli guruhli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar. Bularga talabaning tabiiy imkoniyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to'liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Bularga talaba shaxsining sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi.

Bulardan tashqari xususiy (o'quv fanlari) pedagogik texnologiyalar, alternativ hamda mualliflik pedagogik texnologiyalari ham mavjud.

Bulardan tashqari hozirda pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishlari bor bo'lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, integrativ, ataptiv pedagogik texnologiyalardan iborat.

Empirik-sezgi a'zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e'tibor sezgi a'zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv-atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. Tabaqalashtiruvchi (bilim o'rganishda tarkibiy qismlarga ajratish) tafakkurni shakllantiradi, bilim ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik- yo'naltiruvchi ta'lim berish yo'li bilan ta'lim berish tizimi. topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o'quv-izlanish ta'lim metodi. Optimallashtirilgan (ko'p variantlardan eng ma'qulini, mosini, muvofiqini tanlash) tafakkurini rivojlantiradi.

Kreativ-tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo'lib, talabalarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inversion-axborotlarni turli tomondan o'rganish, o'rnini almashtirish xususiyatiga ega bo'lib, tafakkur (fikrlash) tizimini rivojlantiradi.

Integrativ-axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarini o‘zaro ajralmas bog‘liqligi ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash.

Adaptiv –axborotlarni o‘rganish va ulardan foydalanish jarayonini o‘rganish hamda o‘rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga zrishish.

Inklyuziv-o‘qituvchi bilan talabaning o‘zaro munosabatlarida tenglik asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Tibbiy ta’lim jarayonini tadbiq etar ekamiz tibbiy ta’limda pedagogikaning maqsadini quyidagicha belgiladik: tibbiyat yo‘nalishi talabalarida yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish, odob-ahloq, tarbiya, hayotiy va kasbiy faoliyatlar uchun strategiyalarni rivojlantirish, iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning jadal rivojlanishi tolerantlik xususiyatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlash va shaxsiy xatti-harakatlari oqibatlarini oldindan his etish, shaxsning o‘ziga berilgan imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, to‘g‘ri maqsad qo‘yish va unga erishish bo‘yicha pedagogik va psixologik bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Bugungi glaballahuv jarayonida tibbiyat rivojlanar ekan kadrlarni tayyorlash va ularni har tomonlama shakllantirish masalalarida quyidagi vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi:

- tibbiy ta’lim talabalariga kasbiy fanlarni o‘zlashtirishi hamda keyinchalik kasbiy faoliyati uchun asos bo‘ladigan shaxs va uning faoliyati, individual xususiyatlari, bilish jarayonlari,
- emotsiyal – irodaviy boshqaruv, turli qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qaratilgan tolerantlik, kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish, ta’sirchan psixoprofilaktik, pedagogik va psixologik usul va vositalasini o‘rgatish;
- tibbiy ta’limda o‘qitiladigan pedagogika fanining ilmiy-amaliy, metodologik asoslari, shaxs pivotlanishing umumiy qonuniyatlarini, shaxsning bilish jarayonlari, individual-psixologik xususiyatlasi, emotsiyal - irodaviy holatlari, muloqot va guruhlar psixologiyasi, tarbiya jarayonining mazmun va mohiyati, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini asoslash;
- tibbiy ta’limda pedagogika fanining maqsad-vazifalari, ob’ekti, predmeti, asosiy tushuncha va terminlari, ilmiy-tadqiqot metodlari, tarmoqlari, fanlar tizimida tutgan o‘rni, tibbiyotdagi ahamiyati, shaxs shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning ro`li, shaxs faoliyati va uning individual xususiyatlari, emotsiyal-irodaviy holatlari va boshqaruvi, bilish jarayonlarini rivojlantirish usullasi, muloqot, kichik guruhlarning pedagogik psixologik qonuniyatlarini va ularning shaxs ta’lim-tarbiyachiga ta’siri, rivojlanishda individual sifatlarni hisobga olish xususiyatlari, bo‘lajak shifokorlarning tarbiyaviy ta’sir etish usullari va vositalari, tarbiya turlari, oilaviy

tarbiya asoslari, didaktika va ta'lim jarayonining tuzilishi, ta'lim tamoyillari, ta'lim (pedagogik) texnologiyalari tuzilishi, tasnifi va klinik fanlarda qo'llanish xususiyatlari, o'qitishning noan'anaviy usullarini tadbiq qilish.

Tibbiy ta'limda pedagogika fani o'z oldiga qo'ygan vazifalariga tayanib, biz bo'lajak shifokorlarning oldiga qo'yilgan vazifalarni ham tadqiq etdik.

Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati

1. Kodirova, M. M., & Muxammadova, G. Q. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TIZIMINING TIBBIYOT FANLARINI 'QITISHDAGI O 'RNI (Kommunal va Mehnat gigiyenasi dars mashgulotarini organayzerlar asosida). PEDAGOOGS, 53(1), 37-41.
2. "Gigiena truda" Pod redaktsiey akad. RAMN, prof. N.F. Izmerova, prof. V.F. Kirillova – M., 2010, - 583 b.
3. Iskandarov A.B., I.V.Slavinskaya i dr. "Ozdorovlenie usloviy truda jeno'in, zanyatqx na trikotajnom proizvodstve" Metodicheskaya rekomendatsiya № 012-3/0120 – 2008, - 18 b.
4. Iskandarov A.B. Gigiena truda i funktsionalg'noe sostoyanie organizma jenshin zanyatqx na trikotajnqx proizvodstvax Uzbekistana.- T., 2012. - 166 b.